

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'YIN FAOLIYATI YORDAMIDA KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

**Abdusattorova Umida Abdusamat qizi**

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14938760>

*Anontatsiya. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin faoliyati orqali kreativ fikrlashga o'rgatishning nazariy va metodologik asoslarini o'rganadi. Maktabgacha ta'lif jarayonida o'yin faoliyatining ahamiyati, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yinlarning roli va muhim metodik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. O'yin faoliyati, bolalar uchun nafaqat ko'ngilochar, balki ta'limiy va rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Maqolada shuningdek, kreativ fikrlashni rag'batlantirish uchun o'yinlarni tanlash va tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Natijada, bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yin faoliyatining samaradorligi tasdiqlanadi.*

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lif, o'yin faoliyati, kreativ fikrlash, bolalar rivoji, ta'limiy metodlar, ijodiy qibiliyatlar, pedagogik yondashuvlar, o'yin orqali o'rganish, rivojlantiruvchi o'yinlar, ta'lif jarayoni.

### ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ТВОРЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ ЧЕРЕЗ ИГРОВУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретико-методические основы обучения дошкольников творческому мышлению посредством игровой деятельности.

Рассмотрены значение игровой деятельности в процессе дошкольного образования, роль игр в развитии творческих способностей детей, важные методические подходы.

Игровая деятельность не только развлекает детей, но и обучает и развивает.

Также в статье даны рекомендации по выбору и организации игр, стимулирующих творческое мышление. В результате подтверждена эффективность игровой деятельности в развитии творческого мышления детей.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, игровая деятельность, творческое мышление, развитие ребенка, методы обучения, творческие способности, педагогические подходы, обучение через игры, развивающие игры, образовательный процесс.

**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEACHING PRESCHOOL CHILDREN TO THINKING CREATIVELY THROUGH PLAY ACTIVITY**

**Abstract.** This article examines the theoretical and methodological foundations of teaching preschool children to think creatively through game activities. The importance of play activities in the process of preschool education, the role of games in the development of children's creative abilities, and important methodological approaches are considered. Play activities are not only entertaining for children, but also educational and developmental. The article also provides recommendations for the selection and organization of games to stimulate creative thinking. As a result, the effectiveness of game activities in developing children's creative thinking skills is confirmed.

**Key words:** preschool education, game activity, creative thinking, child development, educational methods, creative abilities, pedagogical approaches, learning through games, developmental games, educational process.

---

**Kirish.** Kreativlik (lot ing. “sreate”—yaratish, “creative” yaratuvchi ijodkor)—individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi SHaxsnинг kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. SHuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi[1]. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi.

Adabiyotlar tahlili: Zamonaviy ta’lim barcha turdagи ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor bo‘lishlarini taqozo etmoqda. “Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mayjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). SHarqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yuye, 2000 y.).

Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni didaktik o‘yinlar orqali ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari tafakkurini rivojlantirishda innovatsion axborot texnologiyalardan foydalanish va amaliyatga keng tatbiq etish, tarbiyachilarning pedagogik va kasbiy mahorat darajasini oshirish muhim omil sanaladi. Bunda muammoli o‘qitish, o‘yinli texnologiyalar (rolli - ishchan o‘yinlar, tadbirkorlik o‘yinlari), trening, video-treninglar, muammoli seminarlar, mahorat darslari, tyutorlik, fasilitatorlik, pedagogik muammoli vaziyatlarni yechish va tahlil qilish, “Keys-stadi”, kichik guruhlarda o‘qitish, mikro-darslar, ijodiy taddiqotchilik metodlari, o‘quv loyhalar, autotreninglarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasining ishlab chiqilishiga bolalar tafakkurini ta’lim metodlari orqali maqsadga erishamiz.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan har qanday mashg‘ulotni didaktik o‘yinlar orqali tashkil etish, tarbiyachi tomonidan qo‘llanilayotgan ta’lim metodlari kichik guruhdan o‘rta guruhga, undan katta va maktabga tayyorlov guruhlariga o‘tish asnosida ham o‘zgarib, murakkab xususiyat kasb eta boradi. Bu jarayonda didaktik o‘yinlarni, ta’lim metodlaridan foydalangan holda qo‘llash tarbiyachining kreativ kompetentligi va mahorati darajasiga bog‘liq holda takomillashib boradi. Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliqa asoslanib aytishimiz mumkinki, inson miyasining 30 foizini vizual, 3 foizini audial ta’minlovchi neyronlar tashkil etadi. Katta va maktabga tayyorlov guruhi bolalari tafakkurini rivojlantirish jarayonida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar orqali bilimlarning 85 foizini ko‘rish retseptorlari yordamida o‘zlashtirish imkonini mavjud. Shu ma’noda, didaktik o‘yinlar o‘rganilayotgan ob’ektini har tomonlama oson tushunishga yordam beradi, bolalarda kechadigan tafakkur protsessining analiz va sintez qilish jarayonini ya’ni predmetning tashqi ko‘rinishi, ichki tuzilishi haqida to‘laqonli ma’lumot olish qulayligini nazarda tutgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘qitish tizimida keng foydalaniladi. Taddiqot ishimiz doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarni mashg‘ulotlari asosida tafakkurini rivojlantirish bir necha ta’limiy metodlar asnosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Masalan: predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish bolalar tafakkurini rivojlantirishda didaktik samara beradi. Biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo‘lavermaydi. Shu sababli, tarbiyachilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun’iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan “Hayvonot bog‘ida”, turli o‘simliklar bilan “Issiqxonada”, sabzavotlar bilan “Dalada”, mevalar bilan “Bog‘da” nomli rangli suratlar orqali tanishish) yoki sun’iy ravishda yaratilgan ob’ektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar) dan foydalaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin faoliyati nafaqat ularning dam olish va ko'ngil ochishi, balki ularning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada o'yin faoliyatining nazariy va metodologik asoslari, bolalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishdagi roli va amaliy tavsiyalar keltiriladi.

#### 1. O'yin faoliyatining nazariy asoslari

O'yin faoliyati — bu bolalarning o'zaro aloqalarini, ijtimoiy ko'nikmalarini va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Psixologlar va pedagoglar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin jarayonida bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, yangi g'oyalarni yaratish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

#### 2. Kreativ fikrlash tushunchasi

Kreativ fikrlash — bu yangi g'oyalarni yaratish, muammolarni yangi usullar bilan hal qilish va mavjud bilimlarni yangi kontekstda qo'llash qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish, ularning umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir.

Bu jarayon bolalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etishga, o'zaro hamkorlik qilishga va ijodiy yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi.

#### 3. O'yin faoliyatining metodologik asoslari

O'yin faoliyatini tashkil etishda quyidagi metodologik asoslar e'tiborga olinishi lozim:

- O'yinlarning xilma-xilligi: Turli xil o'yinlar, jumladan, rol o'ynash, konstrukturlar, jamoaviy o'yinlar va boshqalar bolalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

- Ijtimoiy muhit: Bolalarning ijtimoiy muhitda o'zaro aloqalari ularning kreativ fikrlashiga ta'sir qiladi. Oila, mакtab va do'stlar bilan muloqot bolalarning ijodiy qobiliyatlarini oshiradi.

- Muammo yechish faoliyati: Bolalarni muammolarni hal qilishga undaydigan o'yinlar ularda kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, bolalarga ma'lum bir vazifani bajarish uchun cheklangan resurslar berilishi mumkin.

#### 4. Amaliy tavsiyalar

- Ijodiy o'yinlar tashkil etish: Bolalarga turli xil ijodiy o'yinlar taklif qilish, masalan, rasm chizish, qo'shiq aytish yoki hikoya yozish orqali ularning kreativ fikrlashini rivojlantirish.

- O'zaro hamkorlikni rag'batlantirish: Bolalarni jamoaviy o'yinlarga jalb qilish, ularning birgalikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

- Qiziqarli va motivatsion muhit yaratish: O'yin faoliyatini yanada qiziqarli qilish uchun rang-barang materiallar va vositalar taqdim etish.

**Xulosa.** Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin faoliyati ularning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'yin jarayonida bolalar o'z g'oyalarini ifoda etish, muammolarni hal qilish va yangi narsalarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuning uchun pedagoglar va ota-onalar bolalar uchun ijodiy va qiziqarli o'yin faoliyatlarini tashkil etishga e'tibor berishlari zarur.

## REFERENCES

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o'quv-uslubiy qo'llanma). - Qarshi : Nasaf, 2011.
2. Ziyamuhamedov, Bo'ri, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.y
3. Alimov N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik ta'limga tayyorlash . Maktabgacha ta'lim - T.:2005.
4. R.G'.Qodirov "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya"(2005)
5. "Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi".(2010)
6. Venger L.A., Dyachenko O.M. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlar va mashqlar"
7. Tunik E.E. "Ijodiy fikrlash diagnostikasi" (2006)